

BOLALARDA ZO'RIQISH BOSH OG'RIG'INING KLINIK XUSUSIYATLARI VA DIFFERENSIAL DIAGNOSTIKASI

Samatov Farrux Farxodovich

Toshkent davlat tibbiyot universiteti Termiz filiali tibbiy psixologiya,

nevrologiya va psixiatriya kafedrasida assistenti, PhD

+998919115492, e-mail: samatovfarrux@icloud.com

<https://orcid.org/0009-0003-8049-5540>

Aralov Shaxzod Sayfullayevich

Saydumova Roksana Valerevna

Xudoyberdiyeva Xursanoy Anvar qizi

Xo'shboqov Quvonchbek Odina o'g'li

Toshkent davlat tibbiyot universiteti Termiz filiali tibbiy psixologiya,

nevrologiya va psixiatriya kafedrasida ordinatorlari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19949161>

Annotatsiya. Zo'riqish bosh og'rig'i bolalar va o'smirlar orasida eng ko'p uchraydigan birlamchi bosh og'riqlaridan biri bo'lib, uning klinik kechishi va differensial diagnostikasi amaliy pediatrik nevrologiyada muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada bolalarda zo'riqish bosh og'rig'ining klinik xususiyatlari, etiopatogenezi hamda boshqa bosh og'riq turlari bilan farqlash mezonlari tahlil qilinadi. Zo'riqish bosh og'rig'i odatda ikki tomonlama, siqib turuvchi (bosuvchi) xarakterga ega bo'lib, jismoniy faollik bilan kuchaymaydi, ko'ngil aynishi va qayt qilish bilan kam hollarda kechadi. Bolalarda bu holat ko'pincha psixoemotsional zo'riqish, maktab yuklamasi, uyqu buzilishlari va stress omillari bilan bog'liq bo'ladi.

Differensial diagnostika jarayonida migren, ikkilamchi (simptomatik) bosh og'riqlar, intrakranial gipertenziya sindromi hamda yallig'lanish kasalliklari (masalan, meningit, ensefalit) bilan farqlash muhimdir. To'g'ri tashxis qo'yish klinik belgilarni chuqur tahlil qilish, anamnezni batafsil yig'ish va zarur hollarda instrumental tekshiruv usullarini qo'llashga asoslanadi. Tadqiqot natijalari bolalarda zo'riqish bosh og'rig'ini erta aniqlash va samarali davolash choralarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: zo'riqish bosh og'rig'i, bolalar, differensial diagnostika, migren, psixoemotsional zo'riqish, nevrologiya.

Dolzarbliligi: Zo'riqish bosh og'rig'i (ZBO) bosh miya, uning qon-tomir tizimi yoki bosh va bo'yin sohasidagi boshqa anatomik tuzilmalarning organik zararlanishi hamda tizimli kasalliklar bilan bog'liq bo'lmagan birlamchi bosh og'riqlari turiga kiradi. Epidemiologik tadqiqotlarga ko'ra, ZBO bosh og'rig'ining eng ko'p uchraydigan shakli bo'lib, nevrologik kasalliklar orasida yetakchi o'rinni egallaydi. Shunga qaramay, bolalar nevrologiyasida ushbu patologiya ko'pincha yetarli darajada baholanmaydi yoki noto'g'ri tashxislanadi. Bunga bolalik davrida klinik belgilarining noaniqligi sabab bo'ladi. ZBO va migren klinikasining o'xshashligi, shuningdek, bosh og'rig'i fenotipining yoshga qarab o'zgaruvchanligi differensial diagnostikani murakkablashtiradi. Maktab yoshidagi bolalarda psixoemotsional zo'riqish hamda bo'yin sohasidagi funksional o'zgarishlar ZBO patogenezida muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu holat o'quv faoliyati va ijtimoiy moslashuvga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot maqsadi: Bolalarda zo'riqish bosh og'rig'ining klinik xususiyatlarini o'rganish va uni boshqa bosh og'riqlari, xususan migren bilan differensial tashxis qilish imkoniyatlarini aniqlash.

Tadqiqot materiali va metodlari: Tadqiqotda maktab yoshidagi bolalarda kuzatilgan bosh og‘rig‘i holatlari tahlil qilindi. Klinik-nevrologik tekshiruv, anamnez yig‘ish, og‘riq sindromining xarakterini baholash, shuningdek differensial diagnostika usullari qo‘llanildi.

Natijalar: Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, bolalarda ZBO ko‘pincha ikki tomonlama, siqib turuvchi xarakterda bo‘lib, jismoniy faollik bilan kuchaymaydi. Migren bilan solishtirganda, ZBoda vegetativ simptomlar kamroq uchraydi. Psixoemotsional zo‘riqish va bo‘yin mushaklaridagi funksional o‘zgarishlar asosiy qo‘zg‘atuvchi omillar sifatida aniqlanadi. Ayrim hollarda bosh og‘rig‘i fenotipining o‘zgaruvchanligi kuzatilib, bu differensial tashxisni qiyinlashtiradi.

Xulosa: Bolalarda zo‘riqish bosh og‘rig‘ini erta aniqlash va uni migren hamda boshqa bosh og‘riqlari bilan to‘g‘ri differensial tashxis qilish muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv noto‘g‘ri tashxis qo‘yilishining oldini oladi va samarali davolash choralarini tanlashga imkon yaratadi. Mazkur muammo tibbiy, ijtimoiy va pedagogik jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Olesen J. Headache disordersning xalqaro tasnifi // *Lancet Neurology*. – 2018. – Vol. 17. – P. 396–397.
2. Rizzoli P., Mullally W.J. Headache // *American Journal of Medicine*. – 2018. – Vol. 131. – P. 17–24.
3. Stovner L., Hagen K., Jensen R. The global burden of headache // *Cephalalgia*. – 2007. – Vol. 27(3). – P. 193–210.
4. Sergeev A.V. Tension headache: current neuroscience data and treatment options // *Russkii meditsinskii zhurnal*. – 2022.
5. Parfenov V.A., Abdulina O.V., Zamergrad M.V. Diagnostika i lechenie golovnoy boli // *Nevrologicheskiy jurnal*. – 2007.
6. Ergashova H.F. Birlamchi zo‘riqish bosh og‘rig‘ining nevrologik xususiyatlari va rivojlanish mexanizmi // *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies*. – 2025. – B. 28–31.
7. Mamadaliyeva Sh.O‘, Isamuxametova Yu.M. Depressiya bilan kechuvchi surunkali zo‘riqish bosh og‘rig‘ida nomedikamentoz usullar samaradorligi // *Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar jurnali*. – 2025.
8. Saidvaliyev F., Rahimova Sh. Abuzus bosh og‘rig‘i // *Meditsina i innovatsii jurnali*. – 2022.
9. Zo‘riqish bosh og‘rig‘i: etiologiya, klinika va diagnostika // *Asab va ruhiyat klinikasi materiallari*. – 2023.
10. Tension-type headache: clinical features, diagnosis and management // *Apollo Hospitals Clinical Resources*. – 2024.